

YOSHLAR JINOYATCHILIGINI OLDINI OLISHDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR VA ULARNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH MUAMMOLARI

Raxmatov Kamoljon Ximmat o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistraturasi tinglovchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablari zamonaviy kriminologik nazariyalar asosida tahlil qilinadi. Unda kriminogen omillar, deviant xulq-atvor va ijtimoiy nazorat mexanizmlarining zaifligi nuqtai nazaridan muammo yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida ushbu nazariyalarni amaliyotga tatbiq etishdagi tizimli kamchiliklar hamda yoshlar jinoyatchiligini oldini olishga qaratilgan samarali kriminologik choralar ko'rib chiqiladi.

Аннотация: В данной статье анализируются причины возникновения молодежной преступности на основе современных криминологических теорий. В нем освещается проблема с точки зрения криминогенных факторов, девиантного поведения и уязвимости механизмов социального контроля. Также будут рассмотрены системные недостатки в практическом применении этих теорий в условиях Узбекистана и эффективные криминологические меры, направленные на предотвращение преступности среди молодежи.

Abstract: This article analyzes the causes of youth crime based on modern criminological theories. It highlights the problem from the point of view of criminogenic factors, deviant behavior, and the weakness of social control mechanisms. Also, systemic shortcomings in the practical implementation of these theories in the conditions of Uzbekistan, as well as effective criminological measures aimed at preventing juvenile delinquency, will be considered.

Kalit so'zlar: yoshlar jinoyatchiligi, kriminologik nazariya, kriminogen omillar, deviant xulq-atvor, jinoyat motivatsiyasi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ijtimoiy nazorat, resotsializatsiya, individual profilaktika, takroriy jinoyatchilik, huquqiy madaniyat, kriminologik tahlil.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar jinoyatchiligi nafaqat alohida davlatlar, balki butun jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb kriminologik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning ko'payishi jamiyat xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik va kelajak taraqqiyotiga jiddiy tahdid soladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan uchrashuvda yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar, erishilayotgan

natijalar xususida nutq soʻzlab, *Birinchi va ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo'lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog'ini baland ko'tarishga qodirsiz. Sizlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz, – deya yoshlarni ta'riflaydilar*¹. Bugungi kunda qaysi sohada bo'lmasin yoshlarga juda keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Afsuski "Yoshlik - beboshlik" deya nojo'ya harakatlarga qo'l urib, jinoyat ko'chasiga kirib ketayotgan yoshlar ham bugungi kunda uchrab turibdi. Tahlillarga ko'ra 2025-yil davomida jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 63 177 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilib, ular doirasida 79 554 nafar shaxsga nisbatan sud qarorlari qabul qilingan. Sudlangan shaxslarning 55 829 nafari erkak, 7 511 nafari ayollarni tashkil etgan. Yoshlar orasida sudlanganlar esa 23 973 nafarga yetgan, ularning 2 431 nafari voyaga yetmaganlar hisoblanadi.² Shu bois mazkur muammoni kriminologik jihatdan chuqur o'rganish, uning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Travis Hirschi tomonidan 1969-yilda ilgari surilgan "**Ijtimoiy nazorat nazariyasi**" (Social Control Theory) kriminologiyada inqilobiy yondashuv hisoblanadi. An'anaviy nazariyalar "Nima uchun odamlar jinoyat sodir etadi?" degan savolga javob izlagan bo'lsa, Hirschi "Nima uchun ko'pchilik odamlar jinoyat sodir etmaydi va qonunga itoat qiladi?" degan masalani o'rtaga tashlaydi. Uning fikricha, inson tabiatan o'z manfaatlarini ko'zlovchi mavjudotdir va agar uni hech narsa to'xtatib turmasa, u oson yo'l bilan maqsadiga erishish uchun qonun buzishga moyil bo'ladi. Uni jinoyatdan to'xtatib turuvchi kuch — bu **jamiyat bilan bo'lgan mustahkam ijtimoiy aloqalardir**.

Hirschi ushbu aloqalarni (Social Bonds) to'rtta asosiy elementga ajratadi:

1. Bog'liqlik (Attachment): Bu element shaxsning boshqa odamlar (ota-ona, o'qituvchilar, tengdoshlar) bilan bo'lgan hissiy va emotsional rishtalarini anglatadi. Bunda **oilaning roli va aloqaning uzilishi** haqida to'xtaladi, ya'ni agar bola o'z ota-onasini yaxshi ko'rsa va hurmat qilsa, u biror nojo'ya ish qilishdan oldin "Ota-onam bilsa nima deydi? Ularning ishonchini qanday oqlayman?" deb o'ylaydi, aloqaning uzilishi esa oila va maktab bilan hissiy bog'liqlik zaiflashsa, o'smirning jamiyat qadriyatlariga nisbatan befarqlik uyg'onadi va u jinoyatga moyil bo'lib qoladi.

2. Majburiyat (Commitment): Bu shaxsning jamiyatda erishgan yutuqlari va kelajakdagi maqsadlari uchun kiritgan "investitsiyasi"dir. **Ijtimoiy sarmoya:** Yaxshi o'qish, sportdagi yutuqlar yoki kelajakdagi martaba rejaları shaxsni jinoyatdan tiyadi. Chunki bitta jinoiy ish butun hayoti davomida erishgan nufuzi va imkoniyatlarini yo'qqa chiqarishi mumkinligini anglaydi. **Xavf:** Hech qanday ijtimoiy maqsadga ega

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/8278>

² <https://vaqt.uz/uz/news/2025-yilda-24-mingga-yaqin-yoshlar-jinoyat-ishlari-boyicha-sudlangan-19375>

bo'lmagan yoshlarda "yo'qotadigan narsaning o'zi yo'q" degan tushuncha shakllanadi, bu esa ularni jinoiy yo'lga boshlaydi.

3. Jalb qilinganlik yoki Bandlik (Involvement): Bu insonning foydali va qonuniy faoliyatlar bilan bandlik darajasi ya'ni **vaqt omili:** Hirschining oddiy, ammo o'rinli fikri bor: "Bekorchi odamda jinoyat haqida o'ylashga vaqt ko'proq bo'ladi". Sport to'garaklari, o'qish va ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lgan yoshlarning jismonan jinoyat sodir etishga vaqti va imkoniyati qolmaydi.

4. Ishonch (Belief): Bu jamiyatning umumiy axloqiy va huquqiy qoidalari adolatli ekanligiga bo'lgan ichki ishonch. **Qonun ustuvorligi:** Agar yoshlar qonunlarni "hamma uchun barobar" va "to'g'ri" deb qabul qilsa, ularga itoat qilishadi. Agar ularda qonunlar faqat boylar yoki ma'lum guruhlar manfaatini ko'zlaydi degan ishonchsizlik paydo bo'lsa, qonunni buzish ular uchun ma'naviy muammo tug'dirmaydi.

Hirschi ta'kidlaydiki, ushbu to'rt element bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Masalan, oilasiga kuchli **bog'langan** (attachment) bola, o'qishda yaxshi natijalarga erishishga **majburiyat** (commitment) sezadi, dars tayyorlash bilan **band** (involvement) bo'ladi va natijada jamiyat qoidalarning to'g'riligiga **ishonchi** (belief) ortadi. Ushbu nazariya bugungi kunda yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda "jazo"dan ko'ra "ijtimoiylashtirish" (mahallada yoshlarni sportga jalb qilish, oilaviy muhitni sog'lomlashtirish) samaraliroq ekanligini ilmiy isbotlab beradi.³

Bizning nazarimizda, T. Hirschining ijtimoiy nazorat nazariyasidagi **"Jalb qilinganlik" (Involvement)** elementi bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining fundamental asosi bilan hamohangdir. Hirschi ta'kidlaganidek, yoshlarning bo'sh vaqti qanchalik foydali va tizimli mashg'ulotlar bilan band bo'lsa, ularda jinoiy rejalarga o'rin va imkoniyat qolmaydi. Ushbu nazariy yondashuvni O'zbekiston amaliyotida quyidagi ikki mexanizm misolida ko'rishimiz mumkin:

1. "Besh muhim tashabbus" — tizimli bandlik asosi sifatida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus (madaniyat, sport, IT, kitobxonlik va xotin-qizlar bandligi) Hirschining "Involvement" konsepsiyasini jamiyatning quyi bo'g'ini — mahalla va maktab darajasida hayotga tatbiq etishdir. Ma'lumki, yoshlar o'rtasidagi aksariyat bezorilik yoki guruh bo'lib sodir etiladigan jinoyatlar aynan "nazoratsiz bo'sh vaqt" mahsulidir. Besh tashabbus doirasidagi to'garaklar yoshlarni faqat jismonan band qilib qolmay, ularda Hirschining birinchi elementi — **"Bog'liqlik" (Attachment)** hissini (ustoziga, jamoasiga, maktabiga nisbatan) ham mustahkamlaydi.

2. "Yoshlar daftari" — ijtimoiy majburiyatni shakllantirish vositasi "Yoshlar daftari" tizimi orqali ishsiz va muammoli yoshlarga berilayotgan imtiyozlar

³ Hirschi T. Causes of Delinquency. — Berkeley and Los Angeles: University of California Press, 1969. — P. 16-34.

(subsidiyalar, o'qish xarajatlarini qoplash) Hirschning "**Majburiyat**" (**Commitment**) elementiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Inson davlatdan ko'mak olib, o'z tadbirkorligini boshlar ekan, u o'zining ijtimoiy statusini yo'qotishdan qo'rqadi. Binobarin, iqtisodiy va ijtimoiy "sarmoyaga" ega bo'lgan yosh yigit yoki qiz o'z kelajagini xavf ostiga qo'yib, huquqbuzarlik sodir etishdan tiyiladi

Edvin Sazerlend (Edwin Sutherland) tomonidan 1939-yilda ishlab chiqilgan **Differensial assotsiatsiyalar nazariyasi** (Theory of Differential Association) kriminologiya tarixidagi eng nufuzli kontseptsiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu nazariya jinoyatchilikning sabablarini insonning biologik tuzilishi yoki ruhiy kasalliklaridan emas, balki uning **ijtimoiy muhiti va muloqotidan** qidiradi. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki: **Jinoyatchilik — bu o'rganiladigan jarayon**. Edvin Sazerlend o'z nazariyasini tushuntirish uchun to'qqizta tayanch nuqtani ilgari suradi:

1. **Jinoiy xulq-atvor o'rganiladi:** U irsiy emas, inson jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi.
2. **Muloqot jarayonida o'rganiladi:** Shaxs boshqa odamlar bilan verbal (so'z) yoki imo-ishora orqali muloqot qilib, jinoiy tajribani o'zlashtiradi.
3. **Yaqin shaxslar davrasida:** Jinoyatni o'rganishda ommaviy axborot vositalaridan ko'ra, shaxs uchun eng yaqin va qadrlil bo'lgan guruhlar (oilalar, do'stlar, tengdoshlar) hal qiluvchi rol o'ynaydi.
4. **Nimalar o'rganiladi?** Ikki narsa o'rganiladi: a) Jinoyat sodir etishning **texnikasi** (usullari); b) Motivlar, intilishlar va **oqlash usullari** (ratsionalizatsiya).
5. **Qonunga munosabat:** Motivlar va intilishlar huquqiy normalarni "ijobiy" yoki "salbiy" talqin qilish orqali shakllanadi.
6. **Prinsipial nuqta:** Agar shaxsning atrofida qonunni buzishni qo'llab-quvvatlovchi qarashlar, qonunga itoat qilishni targ'ib qiluvchi qarashlardan **ustun kelsa**, u jinoyatchiga aylanadi.
7. **Differensial assotsiatsiyalar farqlanadi:** Muloqotning **chastotasi** (necha marta), **davomiyligi** (qancha vaqt), **ustuvorligi** (shaxs uchun ahamiyati) va **intensivligiga** qarab ta'sir kuchi turlicha bo'ladi.
8. **O'rganish mexanizmi:** Jinoiy xulq-atvorni o'rganish jarayoni har qanday boshqa qonuniy ko'nikmani (masalan, duradgorlik yoki o'qishni) o'rganish mexanizmi bilan bir xil.
9. **Ehtiyojlar bilan tushuntirib bo'lmaydi:** Jinoyatchilikni faqat "pulga ehtiyoj" bilan tushuntirib bo'lmaydi, chunki halol mehnat qilayotgan odamda ham o'sha ehtiyoj bor, lekin u qonunni buzmaydi.

Atrof-muhitning roli va "Oqlash usullari": Sazerlend nazariyasining eng qiziqarli qismi bu — **ratsionalizatsiya (oqlash)**. Masalan, yoshlar o'rtasida o'g'rilik sodir etgan shaxs o'zini quyidagicha oqlashi mumkin: "Men o'g'irlamadim, shunchaki

boylardan haqqimizni oldi”, “amma shunday qilyapti-ku”. Bu kabi fikrlar yoshlarning muloqot muhitida shakllanadi. Agar o‘smir jinoyatni “jasora” deb biladigan guruhga tushib qolsa, u yerda jinoyat sodir etish ijtimoiy jihatdan rag‘batlantiriladi.

Zamonaviy talqin: Virtual “Assotsiatsiyalar”: Bugungi kunda Sazerlend nazariyasi raqamli muhit uchun juda dolzarb.

- **Virtual muhit:** Endi yaqin do‘stlar faqat qo‘shni bolalar emas, balki Telegram yoki ijtimoiy tarmoqlardagi "yopiq guruhlar" a‘zolari bo‘lishi mumkin.
- **Kiber-jinoyatchilik:** Kiber-firibgarlik usullari, zararli dasturlardan foydalanish aynan onlayn forumlar va forumdagi "ustozlar" (differensial assotsiatsiya) orqali o‘rganilmoqda.⁴

Bizning nazirimizda, Sazerlend nazariyasidan kelib chiqib, yoshlar profilaktikasida nafaqat ularni jazolash, balki ularning **muloqot muhitini (assotsiatsiyalarini)** sog‘lomlashtirish, virtual olamdagi shubhali guruhlar ta‘siridan himoya qilish birinchi darajali vazifadir.

BMTning Narkotik moddalar va jinoyat bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, yoshlar o‘rtasidagi jinoyatlar so‘nggi o‘n yillikda barqaror o‘shishga ega bo‘lgan. 2023-yilgi hisobotda qayd etilishicha, dunyo bo‘yicha sodir etilgan jinoyatlarning 25–30 foizgacha bo‘lgan qismini 15–29 yosh oralig‘idagi shaxslar tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda Ichki ishlar vazirligi statistikalariga asoslanadigan bo‘lsak, 2022–2024 yillar oralig‘ida jinoyat sodir etgan shaxslar orasida 18–30 yoshgacha bo‘lganlar soni 35% atrofida bo‘lgan. Ushbu tahlillar mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash tizimida "**proaktiv**" (**oldindan harakat qiluvchi**) choralarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda 18–30 yosh oralig‘idagi shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning yuqori ulushi bizning fikrimizcha quyidagi omillarga bog‘liq:

- **Global kiber-tahdidlarning mahalliy lashishi:** Yoshlarning raqamli texnologiyalarga tez moslashishi fonida, kiber-jinoyatchilik va onlayn qimor (ludomaniya) kabi yangi turdagi huquqbuzarliklar an‘anaviy profilaktika usullarini ortda qoldirmoqda.
- **Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayoni:** 18–30 yosh — shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishidagi eng kritik bosqich bo‘lib, iqtisodiy mustaqillikka erishish yo‘lidagi to‘siqlar kriminogen xavfni oshirmoqda.
- **Nazariya va amaliyot uzilishi:** Mavjud kriminologik nazariyalarning (masalan, Ijtimoiy nazorat nazariyasi) amaliyotga tatbiq etilishida hali ham "mahallabay"

⁴ Sutherland E. H., Cressey D. R. *Principles of Criminology*. 11th edition. – Chicago: General Hall, Inc., 1992. – P. 77-83.

ishlash tizimida raqamli tahlil (Big Data) va individual psixologik yondashuvlar to'liq integratsiya qilinmagan.

O'zbekiston Kontekstida Muammolar va Yechimlar: O'zbekistonda yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda "Ijtimoiy profilaktika" tushunchasi so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Xususan, huquqbuzarliklarning oqibati bilan kurashishdan ko'ra, ularning barvaqt oldini olishga qaratilgan "mahallabay" tizimi joriy etildi⁵. Biroq, amaliyotda ushbu tizimning samaradorligiga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

1. Idoralararo integratsiyaning zaifligi Bugungi kunda yoshlar bilan ishlashda IIV, Yoshlar ishlari agentligi va Milliy gvardiya kabi o'ndan ortiq tuzilmalar mas'ul etib belgilangan. Bizning nazarimizda, muammo ushbu idoralarning ko'pligida emas, balki ular o'rtasidagi yagona raqamli axborot platformasining mukammal emasligidadir. Bu esa "profilaktik zanjir"ning uzilishiga va resurslarning tarqoq sarflanishiga olib kelmoqda.⁶

2. Jazo va profilaktika muvozanatining buzilishi Amaliyotda profilaktika inspektori va psixolog hamkorligi ko'pincha rasmiy xarakterga ega. Ko'p hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoshning psixologik portretini tahlil qilishdan ko'ra, ma'muriy jazo choralarini qo'llashni afzal ko'rmoqdalar. Bu esa yoshlarda jamiyatga nisbatan "begonalashuv" (alienation) hissini uyg'otadi.⁷

3. "Ijtimoiy profilaktika"ning deklarativligi Bizning fikrimizcha, profilaktika chora-tadbirlari ko'pincha umumiy ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, zamonaviy kriminologiya jinoyatning tub ildizi sifatida yoshlarning iqtisodiy nosog'lom muhiti va raqamli dunyodagi "bo'shliq"larini ko'rsatadi⁸.

Taklif etilayotgan yechimlar:

1. **"Case Management" (Keys-menejment) tizimi:** Har bir "og'ir" toifadagi yosh bo'yicha alohida keys ochilib, unga barcha idoralar birgalikda (biriktirilgan holda) yechim topishi.
2. **Raqamli profilaktika (E-profilaktika):** Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi kriminogen faolligini sun'iy intellekt yordamida tahlil qilish va erta ogohlantirish tizimini joriy etish.
3. **Restorativ adolat (Tiklovchi odillik):** Yoshlarni darrov jinoiy javobgarlikka tortmasdan, yetkazilgan zararni qoplash va jamiyatga qaytarish orqali tarbiyalash tizimini kengaytirish.

⁵ O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-son Qonuni. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. (Yangi tahrirdagi sharhlar bilan, 2023).

⁶ Rustambayev, M. H. *Kriminologiya: O'quv qo'llanma*. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021. – B. 156-160.

⁷ G'ofurov, M. "Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishda psixologik xizmatning o'rni". // *Huquq va burch* jurnali. – 2022. – №4. – B. 22-25.

⁸ United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). *Handbook on the Crime Prevention Guidelines: Making them work*. – New York: United Nations, 2010 (Updated 2023). – P. 88.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda faqat jazo choralari tayanish kutilgan samarani bermaydi. Zamonaviy kriminologik nazariyalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, yoshlarning oila, ta'lim va sog'lom ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi zaiflashishi hamda nazoratsiz virtual makon orqali kriminogen xulq-atvorni o'zlashtirishi asosiy xavf omillaridir. Bizning nazarimizda, O'zbekistonda 18–30 yoshlilar o'rtasidagi jinoyatchilik ulushining 35% ni tashkil etishi — profilaktika tizimida nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishning natijasidir. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun quyidagi choralar zarur deb hisoblaymiz:

- **Raqamli integratsiya:** Idoralararo ma'lumot almashish tizimini to'liq raqamlashtirish va "xavf ostidagi" yoshlarni barvaqt aniqlashda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish.
- **Psixologik ustuvorlik:** Profilaktika inspektorlari faoliyatida jazolash emas, balki "tiklovchi odillik" va individual psixologik reabilitatsiya tamoyillarini birinchi o'ringa olib chiqish.
- **Kiber-immunitet:** Yoshlar orasida raqamli gigiyena va kiber-etika madaniyatini shakllantirish orqali virtual jinoyatchilikka qarshi profilaktikani tizimlashtirish.

Yoshlar jinoyatchiligining oldini olish — bu shunchaki huquqbuzarlikni to'xtatish emas, balki ularning ijtimoiy ehtiyojlarini to'g'ri yo'naltirish va jamiyat bilan aloqalarini mustahkamlash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-son Qonuni. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
3. Hirschi T. Causes of Delinquency. – Berkeley and Los Angeles: University of California Press, 1969. – P. 16-34.
4. Sutherland E. H., Cressey D. R. *Principles of Criminology. 11th edition.* – Chicago: General Hall, Inc., 1992. – P. 77-83.
5. Rustambayev, M. H. *Kriminologiya: O'quv qo'llanma.* – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021. – B. 156-160.
6. G'ofurov, M. "Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishda psixologik xizmatning o'rni". // *Huquq va burch* jurnali. – 2022. – №4. – B. 22-25.
7. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). *Handbook on the Crime Prevention Guidelines: Making them work.* – New York: United Nations, 2010 (Updated 2023). – P. 88.
8. <https://president.uz/oz/lists/view/8278>
9. <https://vaqt.uz/uz/news/2025-yilda-24-mingga-yaqin-yoshlar-jinoyat-ishlari-boyicha-sudlangan-19375>